

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



**«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATION YONDASHUVLAR»**

MAHVUSUALA XALQARO I. MUNAQASHI ALG'IMASI



**«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»**

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



**“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”**

PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE



ANDIJON-2024. 10-IYUN

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”
PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE

2024-YIL 10-IYUN

ANDIJON – 2024

Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi "2024-yilga mo'ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 16-sonli buyrug'i, shuningdek, mamlakat ilm-fani nufuzini yanada oshirish va xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik ko'larni kengaytirishga qaratilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpozium, kongress, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarni yuqori ilmiy va tashkiliy amaliy darajada samarali o'tkazilishini ta'minlash maqsadida Andijon davlat chet tillari institutida "Ingliz tili nazariy aspektlari", "Ingliz tili va adabiyoti" hamda "Ingliz tili amaliyoti" kafedralari tomonidan "Zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlari va chet tillarini o'qitishda innovatsion yondashuvlar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi.

Mas'ul muharrir(lar):

f.f.n., prof. S.O.Solijonov

Tahrir hay'ati:

f.f.d.prof. D.A.Rustamov
f.f.d.prof. M.I.Umarxo'djayev
PhD. dots. M.A.Qurbanov
f.f.d.prof. G'.M.Xoshimov
f.f.d.prof. V.A.Vositov
PhD. dots. M.G'.Xoshimov
p.f.n. prof. Sh.S.Alimov
PhD. G.M.Ibragimova
PhD. Q.Umrzakov
kafedra o'qituvchisi N.Xamidov
kafedra o'qituvchisi Z.No'monova

Tahrir nashriyoti bo'limi muharriri:

A.A.Xomidov

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallariga oid mazkur to'plam, tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari va chet tillarini o'qitishdagi innovatsion yondashuvlar hamda ulardagi dolzarb masalalarga bag'ishlanligi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur to'plamdan respublika va xorijiy oliy ta'lif muassasalarida hamda ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat olib borayotgan olimlar, professor-o'qituvchilar, doktorantlar, magistrler va iqtidorli talabalarning ilmiy maqolalari joy olgan.

To'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar sanasining to'g'rilingiga mualliflarning o'zları mas'uldirilar.

Andijon davlat chet tillari instituti, 2024-yil

5. Атаканова Г.Ш. Номинации “возраст человека” в когнитивно-прагматическом и лингвокультурологическом аспектах (на материале англ. языка): Автореф. дис.... канд.филол.наук. –Т. 2006. –20c

INGLIZ VA O'ZBEK SPORT TERMINYLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

*Xabibullayeva Zarnigor Elmurod qizi
Andijon Davlat chet tillar instituti magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida sport terminologiyasining o'xhash va farqli jihatlari, milliy-madaniy xususiyatlari muhokama etiladi hamda misollar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Sport terminologiyasi, tarjima, o'qitish, madaniyat, ingliz tili, o'zbek tili.

KIRISH

Jahon tilshunosligi zamonaviy konsepsiyasida lisoniy hodisalarini yangi ilmiy paradigma – antropotsentrism qonuniyatlarini chegarasida talqin qilish o'zining ijobiy natijalarini bera boshladi. Bu borada sport terminologiyani lisoniy/g'ayrilisoniy tafakkur doirasida chog'ishtirish va chog'ishtirib o'rganishda ilk qadamlar qo'yildi. Dunyo terminosferasi maydonida sport terminlarining noqardosh tillar tizimida qo'llanishiga alohida e'tibor beridi. Biroq mohiyatan va milliy tabiatni jihatidan farqlanuvchi ingliz va o'zbek sport terminlari shakl va mazmun chegaralarining funksional dinamizmi, polisemiya, omonimiya, variativlik qonuniyatlarini doirasida terminlarning mantiqiy-konseptual qiymatini hamda innovatsion taraqqiyot istiqbollarini belgilash yo'lida tadqiqot ishlari davom ettirilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Terminologiyaning tarixiy ildizlariga e'tibor qaratilganda sport terminlarining taraqqiyot bosqichlari, terminlarning milliy o'ziga xosligi, ularning tasnifi va tavsifi kabi masalalar tadqiqi yo'naliishida A.Rey, J.K.Seyjer, O.Vyuster, Yu.N.Marchuk, J.Kornyu, R.Temmermen, V.M.Leychik, S.I.Omarova, M.A.Parjeva, Sh.D.Shelov, O.S.Axmanova, shuningdek, A.Hojiev, H.Dadaboev, G'.M.Ismailov, Z.A.Abdullaeva, A.Nurmonovning tadqiqotlari alohida e'tiborga molik [1-5].

Sport terminologiyasi yo'naliishida R.V.Vaynz, R.V.Popov, A.N.Shafoatov, I.Yu.Xmelevskaya, Z.Murzoev, Ye.I.Gureeva kabi xorijiy olimlar, shuningdek, M.X.Boboyorov, X.A.Sarimsokov singari o'zbek olimlari o'z tadqiqotlarini yaratishgan. Qolaversa, V.D.Shvayko I.Overana, P.G.Nurov, O'.Q.Yusupov, I.K.Mirzaev, O.S.Ahmedov, P.P.Nishonov, D.I.Xodjaeva kabi olimlar tomonidan qiyosiy-chog'ishtirma tilshunoslik, qiyosiy terminshunoslikning nazariy asoslari dalillangan, terminologiya va uning turli xususiyatlari haqida lug'atlar, monografik asarlar hamda dissertatsiyalar chop ettirilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Terminlar tillararo milliy-madaniy umumiylilik, xususiylik, mushtaraklik va farqlarni yorqin ifodalaydi. Kategoriylar konseptlarni turli xil holatda ma'lum bir madaniy o'zaro bog'liqlik doirasida birlashtiradi. Shu o'rinda V.G.Gak terminning

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

mohiyatini ochib, uning til lug'aviy tizimidagi o'rni keng ekanligini aniqlaydi, terminga mutlaqo o'zgacha, bir qarashda anglash va idrok etish qiyindek tuyuladi, deb aytgan fikriga qo'shilamiz va nazarimizda, haqiqatan ham terminni murakkab, keng qamrovli, idrok etish qiyin bo'lgan lisoniy birlik, deb aytish o'rinnlidir.

Terminologiya bu maxsus lug'atning tipologiyasi, kelib chiqishi, shakli, mazmun-ma'nosi va faoliyati, shuningdek, foydalanish, tartibga solish va yaratish nuqtai nazaridan o'rganadigan fan hisoblansa, qiyosiy terminologiya chegaralarini belgilash mushkul bo'lgan tilshunoslikda baxs-munozaralarga sababchi bo'layotgan, tillarning o'zaro ta'sir etish jarayonini anglashda ko'mak beradi, ma'lum bir tilda bir mavzu doirasiga mansub bo'lgan maxsus so'zlar to'planganida terminologiya hosil bo'ladi.

Bugungi kunda «sport» termini doirasida anglashiladigan voqeahodisalarning rivojlanish dinamikasi sohasida amalga oshirilgan ishlar qatorida sport terminlarining ingliz va o'zbek tillari tizimida har biriga oid umumiyligi va milliy belgilarini aniqlash davlatlararo va xalqaro sport aloqalarini mustahkamlash hamda jismoniy tarbiya va sportga doir xorijiy investitsiyalar, grantlarni jalb etish ishlarini kengaytiradi.

Sportga doir terminlarni o'rganish muammolari, ingliz va o'zbek tillarida sport terminologiyasining boyitilish usullari tahlil qilingan. Bilamizki, sport tarixi qadimgi davrda jismoniy tarbiyaning vujudga kelish xususuyatlarini o'rganishdan boshlanadi. Insoniyatning eng qadimgi davr tarixi 3-3,5 million yil avval boshlanib, milodiy IV asrgacha davom etgan. Ma'lumotlariga ko'ra, odamzod dastlab Afrika, Janubiy va Janubiy-Sharqiy Osiyoda paydo bo'lgan, keyinroq esa Osiyo va Yevropaning boshqa hududlariga kirib borgan. O'rta Osiyoda ham eng qadimgi odamlarning yashashlari uchun qulay sharoitlar mavjud bo'lgan. Mehnat bilan bog'liq bo'lgan turli musobaqalar tashkil etilib, ilk bor mehnatning jins va yoshga qarab bo'linishi amalga oshirilgan. Hindular qabilasida kauchuklardan koptoklar, maxsus chana yasaganlar. Sharqiy Afrikadagi ibridoq qabilalarda langarcho'p bilan sakrash va yugurib kelib balandlikka sakrash musobaqalari o'tkazilgan. Shimoliy va Janubiy Amerikada yevropaliklarning istilosiga qadar rezina koptok, chavgon va racketkalardan foydalanib o'ynaladigan yozgi va qishki o'yinlarni tashkil etishgan. Yirik olim va faylasuf Aristotel insonning ruhi va tanasi ajralmas holda bog'liq ekanligini tushuntirib, jismoniy tarbiyaning aqliy tarbiya bilan hamohangligini ta'kidlagan [2].

Sport terminologiyasida sport terminlari turli tillardan olingan bo'lib, har xil ma'nolarni anglatishi ma'lum. Masalan, «taekvondo» koreyscha so'zdan olingan bo'lib, «tae» – oyoq, «kvon» – qo'l, «do» – yo'l, ya'ni oyoq va qo'llarning harakat yo'li – sport kurashi, basketbol – inglizcha «basket» – savat, «ball» – to'p – sport turi, «shaxmat», fors tilidan olingan «shoh mot» – «shoh o'ldi» – sport turi, dzyudo – yaponcha «dzyu» – yumshoq, «do» – yo'l – sport yakka kurashi, voleybol – inglizcha «volley ball», «volley» – urib qaytarmoq va «ball» – koptok – jamoa bo'lib, o'ynaladigan sport o'yini, boks inglizcha «box» – mushtlash, zarb berish, gandbol nemischa «hand» – qo'l, «ball» – to'p, qo'l to'pi – sport o'yini, kulturizm fransuzcha «culturisme» – gavda madaniyati yoki bodibilding

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

inglizcha «bodybuilding» – tana tuzilishi sport turi, fristayl, inglizcha «free» – erkin, «style» – usul – tog‘ chang‘i sport turi va h.k.

Aytish joizki, tillar bir-biridan himoyalanmagan. Bir til boshqa bir tildan tovushlar, so‘zlar va birikmalarni o‘zlashtirishi mumkin. Masalan, hakam, jamoa, halol (arabcha), chala (fors-tojikcha), bahodir (mo‘g‘ulcha), futbol, basketbol, voleybol, xokkey, boks (rus tili orqali ingliz tilidan kirgan) va boshqalar.

XULOSA VA MUNOZARA

Shunday qilib, sport terminlarini o‘rganish xalqaro lingvomadaniy leksikani integratsiyalanishiga o‘z amaliy natijasini bera oladi. Bu muammolarni o‘rganish qiyosiy tilshunoslik uchun katta ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- Marchuk Yu.N. Hisoblash tilshunosligi. – M.: Sharq-G‘arb, 2017. – B.317; Kornu, Jerard. Linguistique juridique, Parij, Montchrestien, 2010. – P.19.
- Leichik V.M. Hozirgi bosqichda atamalarni unifikatsiyalashning nazariy va amaliy muammolari. Ilmiy va texnik terminologiya. – M., 2012. – B. 44–46.
- Omarova S.I. Dog'iston tillarida terminologiya muammolari (lingvistik terminologiya): Muallifning referati. diss. dok. Filol. Sci. – M., 2018. – B. 48; Parjieva M.A. Professional nutqda lingvistik atamalarning ishslash xususiyatlari. – Stavropol, 2015. – B. 28.
- Shelov S.D. Yana bir bor "termin" tushunchasining ta‘rifi haqida. Herald. – N., 2010. – B. 795–799;
- Axmanova O.S. Lingvistik terminologiya. Lingvistik ensiklopedik lug‘at. – M., 2020. – B. 509; Xojiyev A. Taqdim mezonlari atamasi. – T.: Fan, 2016. – B. 46;

HOLAT BILDIRUVCHI SO'ZLARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SEMANTIK TASNIFI

Muzaffarbekova Umidaxon Zayniddin qizi
Andijon davlat chet tillar instituti

+998916171027

umidakhan1027@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi holat bildiruvchi so‘zlarning semantik tasnifi o‘rganilib, tavsiflovchi so‘zlarning xususiyatlariga ko‘ra turkumlanishidagi o‘xshashlik va farqlar yoritilgan. Ingliz va o‘zbek tillaridagi sifatlarning semantik tasnifini solishtirish va qarama-qarshi qo‘yish orqali ushbu maqola har bir tilning o‘ziga xos lingvistik va madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi ushbu tillarning ma’no va his-tuyg‘ularni bildirish uchun tavsiflovchi so‘zlardan qanday foydalanishi haqida tushuncha berishni maqsad qilgan

Kalit so‘zlar: sifatlar, semantik tasnif, ingliz tili, o‘zbek tili, o‘xshashliklar, farqlar, morfologik tuzilmalar, gradativlik, konnotatsiyalar, tillararo taqqoslash.

SEMANTIC CLASSIFICATION OF ADJECTIVES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

119.	NEMIS NIKOH TO'YLARIDAGI KELIN VA KUYOV VA'DALARINING LINGVISTIK TAHLILI Sidikjon Muminov Mirsobirovich, Qobil Kaxarov Shuhrat o'g'li	376
120.	FRANSUZ ERTAKLARIDAGI HURMAT TAMOYILINING INTENSIONAL XUSUSIYATLARI Sag'dullayeva Zuhra Ne'matulla Qizi Suvonova N.N.	380
121.	INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QORISHIQ HOL ERGASH GAPLI QO'SHMA GAPLAR VA ULARNI BOG'LOVCHI VOSITALAR M.O.Usmonova	383
122.	KO'R KOMPONENTLI QO'SHMA GAPLARGA TURLICHA YONDASHUVLAR Nazarova Sevaraxon Jaxongir qizi	385
123.	INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI PAREMIYALARIDA "ISH" KONSEPTINING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI Burxonova Gulrux	387
124.	INGLIZ VA O'ZBEK SPORT TERMINMLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI Xabibullayeva Zarnigor Elmurod qizi	390
125.	HOLAT BILDIRUVCHI SO'ZLARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SEMANTIK TASNIFI Muzaffarbekova Umidaxon Zayniddin qizi	392
126.	ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА ВЫРАЖЕНИЯ КОМПЛИМЕНТА В АНГЛИЙСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ Xolmuxammedova Sevara Xotam Qizi	399
127.	SEMANTIC FEATURES OF THE PHRASEOLOGICAL UNITS WITH NUMERATIVE COMPONENTS "THREE" IN ENGLISH AND UZBEK Jurayev Ziyodbek Nurmamatovich	402
128.	LINGUISTIC AND SEMANTIC CHARACTERISTICS OF PROVERBS WITH THE CONCEPT OF FRIENDSHIP AND ENMITY IN ENGLISH AND UZBEK Abdulazizova Sevara Ganiyevna Abdurahmanova Hulkaroy Tulanbayevna	405
129.	PRAGMATIC AND LINGUOCULTURAL STUDY OF THE CONCEPT "WRESTLING" IN ENGLISH AND UZBEK Matqulov Xosilbek Mavlonovich	407
130.	PROBLEMS OF TRANSLATING OF THE MEANS EXPRESSING THE GENDER SEMANTICS FROM ENGLISH INTO UZBEK Umida Bahodirovna Tuhktamatova	414
131.	ЎЗБЕК ТИЛИДА ОМОНИМЛАРНИНГ ИФОДАЛАНИШИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОХАЗАЛАР Тургунова Э.Э	416
132.	SPORT TERMINLARI ETIMOLOGIYASI VA LUG'AT BOYLIGINI OSHIRISHDAGI O'RNI Mingboyeva Muborakxon Nabihevna Sagindikova Rahat Jumabayevna	418
133.	THE CLASSIFICATION AND THE DEFINITION OF COLLOCATIONS Mingboyeva Muborakxon Nabihevna	421